Usmonova Hulkar Shavkat qizi

Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

GOSPITAL PEDAGOGIKA VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada "Gospital pedagogika" sohasida bo‘ladigan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi, ularning ta'lim jarayonida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada, gospital pedagogikaning asosiy tamoyillari, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali kompetentlikni oshirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan metodikalar va dasturlar ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, kompitentlik, gospital, rivojlanish, tahlil, omil, ko‘nikma, malaka, bilim, ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности развития профессиональной компетентности преподавателей в области «Больничной педагогики». Профессиональная компетентность преподавателей включает в себя знания, навыки и квалификации, необходимые для их эффективного функционирования в образовательном процессе. В статье также рассматриваются основные принципы больничной педагогики, факторы, влияющие на профессиональное развитие преподавателей, и методы повышения компетентности с использованием современных педагогических технологий. В статье также освещаются методики и программы, важные для укрепления профессиональной подготовки преподавателей.

Ключевые слова: педагогика, компетентность, больница, развитие, анализ, фактор, навыки, квалификация, знания, образование.

Abstract: this article analyzes the possibilities of developing the professional competence of teachers in the field of "Hospital Pedagogy". The professional competence of teachers includes the knowledge, skills and qualifications necessary for their effective functioning in the educational process. The article also considers the basic principles of hospital pedagogy, factors influencing the professional development of teachers, and methods of increasing competence through the use of modern pedagogical technologies. The article also highlights the methodologies and programs that are important in strengthening the professional training of teachers.

Keywords: pedagogy, competence, hospital, development, analysis, factor, skills, qualification, knowledge, education.

Hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro’y berayotgan katta o’zgarishlar kasbiy faoliyatning mazmuni va harakterini sifat jihatdan qayta o’zgartirishni, bo’lajak o’qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy safarbarligi darajasini, raqobatbardoshligini belgilovchi sifatlar (nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning o’zviyligi va birligi, kasbiy kompetentlik, moslashuvchanlik va kasbiy safarbarlik, kasbiy vazifalarni hal etish usullarini egallash, turli kasbiy muammolarni yecha bilish qobiliyati, o’ziga ishonch, mas’uliyat, muvaffaqiyatga intilish,

faol hayotiy va kasbiy pozitsiya, o'zining amaliy tajribasini muntazam boyitishga tayyorgarlik)ni talab etmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Bu haqda mamlaktimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "jamiyatning eng dolzarb muammolarini yuqori saviyali mutaxassis kadrlar hal etishi, ularning kasbiy bilimdonligi, professional kompetentligi, yuksak mahorati, boy ma'naviy-axloqiy qiyofasi, madaniy saviyasiga bog'liq ekanligi isbot talab qilmaydigan harakatdir"[2]. Shuningdek, 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi[1] 4947-sonli Prezident farmonida o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Gospital pedagogika — bu sog'liqni saqlash muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etuvchi maxsus pedagogik soha bo'lib, u kasal yoki nogiron bolalarga ta'lim berish va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu sohada o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning ta'lim jarayonida samarali faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada gospital pedagogika orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda gospital pedagogikasi va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi masalalari bo'yicha ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli, qiyosiy va kompleks yondashuvlar qo'llanildi. Gospital pedagogikasi sohasidagi xorijiy tajribalarni o'rganish uchun qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. Kompetentlik yondashuviga asoslangan baholash mezonlarini aniqlash uchun tahliliy-sintetik metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot doirasida Kurokina (2019) tomonidan taklif etilgan "Gospital pedagogikasi asoslari" metodikasi, Haydarov (2022) tomonidan ishlab chiqilgan "Maxsus ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash kompetensiyasi" modeli va Petrovaning (2020) "Inklyuziv ta'lim kompetensiyalari" tasnifi kabi ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi. Shuningdek, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan gospital pedagogikasi dasturlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun mavjud dastur va yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Buning uchun tahliliy-sintetik va tizimli yondashuvlar qo'llanildi.

Kompetensiya (lotincha so`z bo`lib, erishaman, to`g`ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – sub'yektning maqsadni qo`yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog`liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog`liqlikda bayon etilgan.

Kompetensiya – lotincha "Competentia" so`z bo`lib, o`zbek tilidagi lug`aviy ma'nosi "inson yaxshi biladigan", "tajribaga ega bo`lgan" kabi ma'nolarni bildiradi. Kompetentlik – biron-bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talabalarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati[4, 16]. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalada yuqori darajada qo`llay olinishidir[4, 18].

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik – deganda predmet haqidagi bilimlar, o`qitish netodikasi, pedagogik muloqot ko`nikma va malakasi, shuningdek o`z-o`zini rivojlantirish, o`zo`zini takomillashtirish, o`z-o`zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg`un birlashishini tushungan[5, 320]. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz bo`lajak o`qituvchilar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

- Faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko`nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);

- Shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o`z-o`zini takomillashtirish va o`zo`zini amalga oshirishga oid bilim, ko`nikma va malakalar);

- Kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko`nikma va malaka).

Ta’limning asosiy maqsadi mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas’uliyatli, o`z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohalariga yo`naltirilgan, doimiy kasbiy o`sishga, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlikka tayyor bo`lgan tegishli darajadagi va profildagi malakali yoshlarni tayyorlashni belgilaydi. Bunday yoshlarni tayyorlash uchun kompetentsiyaga asoslangan yondashuvga tayanish kerak, uni amalga oshirish quyidagi maqsadlarga erishish bilan bog`liq:

• o`quvchining ijodiy, shaxsga yo`naltirilgan o`zini o`zi anglashi uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali o`rganish, o`z taqdirini o`zi belgilash (o`zini o`zi belgilash), o`zini o`zi tarbiyalash, o`zini o`zi rivojlantirish;

• o`z axloqi, ongi, madaniy darajasini rivojlantirish ustida mustaqil ishlashga qodir talaba shaxsining ma’naviy-axloqiy sohasini rivojlantirish;

• bitiruvchi shaxsini ijtimoiylashtirish, atrofdagi dunyoda (tabiat va jamiyat), o`zgarishlar makonida voqelikni, o`z faoliyatini o`zgartirish yo`llarini o`zlashtirish, kommunikativ madaniyat, ma’naviy-axloqiy shakllar orqali shaxsni rivojlantirish; hayotning barcha sohalarida o`zini tutish normalarini o`zlashtirish orqali o`zini o`zi belgilashni o`rganish;

• salomatlikni ta’minlash va muhofaza qilish.

V.M.Antipova kompetentsiyaga asoslangan yondashuv tamoyillariga quyidagilarni kiritadi:

➢ diagnostika, ya’ni xulq-atvor va fikrlashda namoyon bo`ladigan tashxis qo`yilgan natijaga erishishga yo`naltirish;

➢ murakkablik, fanlararo-ta’lim va tashqi, atrof-muhit omillari va ta’sirini hisobga olish;

➢ ko`p funksiyalilik: kompetentsiyani bitta ko`nikma yoki xususiyat bilan tavsiflash mumkin emas, bu muammolar to`plamini hal qilish qobiliyatini anglatadi.

Ko`rib chiqilgan tamoyillar, bizning fikrimizcha, ko`p bosqichli kompetentsiya tamoyillari bilan to`ldirilishi kerak. Ko`p bosqichli va ko`p bosqichli kompetentsiya tamoyili

kompetentsiyani nafaqat hodisa sifatida, balki o`quvchi shaxsi va atrof-muhit, ta'lim jarayoni va ta'lim makonining farqlanishini hisobga olgan holda jarayon sifatida ko`rib chiqishga imkon beradi. Pedagogik kasbiy kompetentsiya muammosiga bag`ishlangan zamonaviy ilmiy va ilmiy-amaliy manbalarni o`rganish kontseptsiyaning murakkabligi, talqinlarning kengligi va xilma-xilligidan dalolat beradi[5]

Gospital pedagogika orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalar muhim rol o‘ynaydi:

• Interaktiv usullar: O‘quvchilar bilan faol muloqot qilish, guruhli ishlar va munozaralar o‘tkazish orqali o‘qituvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishadi.

• Masofaviy ta'lim: Onlayn kurslar va vebinarlar orqali o‘qituvchilar yangi bilimlarni o‘zlashtirishi va tajriba almashishi mumkin.

• Amaliy mashg‘ulotlar: O‘qituvchilarni amaliyotga jalb etish, real sharoitlarda ishlash imkoniyatlarini yaratish.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: Hozirgi vaqtda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasida asosan nazariy bilimlar berishga urg'u qaratilmoqda, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yetarli darajada emas. Gospital pedagogikasi sohasida o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun modulli o'qitish, virtual simulyatorlardan foydalanish, mentorlik dasturlarini joriy etish va integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. Xorijiy tajribani o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, shuningdek, tarmoq hamkorligi tamoyilidan foydalanish metodikani takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini gospital pedagogikasi vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va pedagogik ta'lim tizimida gospital pedagogikasi elementlarini integratsiya qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Gospital pedagogika vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari kengdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalar orqali o‘qituvchilar nafaqat bilimlarini oshirishi, balki o‘z malakalarini ham takomillashtirishi mumkin. Bu jarayon, natijada, sog‘liqni saqlash muassasalarida ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning gospital pedagogika sohasidagi rivojlanishi uchun bu imkoniyatlardan samarali foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi 4947-sonli Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

3. Abdurahimov, D. (2022). Inklyuziv ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Kurokina, T. (2019). Gospital pedagogikasi asoslari. Moskva: Prosveshcheniye. 5. Haydarov, F. (2022). Maxsus ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. Pedagogik ta'lim, 4(2), 75-89.

6. Karimov, S. (2021). Pedagogik ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish. Namangan: Namangan davlat universiteti.
7. Smirnova, L. (2020). Gospital pedagogikasi: muammolar va istiqbollar. Pedagogika, 5, 62-71